12-aprel – Kosmonavtika kuni

Joriy yil 12-aprelda kosmonavtika kuni munosabati bilan O'zbekiston Fanlar akademiyasi Astronomiya institutida bayram tadbiri bo'lib o'tdi. Unda FA prezidenti, akademik B.S.Yuldashev, Institut xodimlari, yetakchi olimlar, yosh tadqiqotchilar ishtirok etdi. Tadbirni B.Yuldashev ochib berdi. So’ngra Yuriy Gagarinning kosmosga pazvozi haqidagi film namoyish etildi.

Film namoyishidan keyin Astronomiya instituti direktori, akademik Shuhrat Egamberdiyev va "O'zbekosmos" agentligi yaratilishining boshida turgan Kamol Mo'minov O'zbekistonda astronomik va kosmik tadqiqotlarning hozirgi holati, rejalari va rivojlanish istiqbollari to'g'risida ma'ruzalar qildilar.

12-aprel butun dunyo miqyosidagi voqea - sivilizatsiya tarixidagi birinchi insonning koinotga parvoziga 60 yil tulganini nishonlanmoqda. Ona sayyoramizning birinchi kosmonavti va uning afsonasi yosh harbiy uchuvchi, Sovet Ittifoqi fuqarosi Yuriy Alekseyevich Gagarin edi.

"Vostok" ko'p bosqichli kosmik raketasining parvozi 1961-yil 12-aprelda soat 9 dan 6 minut o'tganda Boyqo'ng'ir kosmodromidan amalga oshirildi va raketa ko'tarila boshlaganda, Gagarin o'zining o'sha mashhur “Ketdik” so'zini aytgan. Uning orbital parvozi 108 daqiqa davom etdi va muvaffaqiyatli qo'nish bilan yakunlandi. Ushbu tarixiy haqiqatni inobatga olgan holda 2011-yil 7-aprelda BMT Bosh assambleyasining maxsus yig'ilishida rezolyutsiya qabul qilindi, unga ko'ra 12-aprel sanasi "Xalqaro kosmik parvoz kuni”ni nishonlash kuni deb e'lon qilindi".

Yerning birinchi kosmonavti, samimiy va quvnoq inson Yuriy Gagarin mehmondo'st va quyoshli yurtimizni juda yaxshi ko'rar edi va u 1961-yildan 1968-yilgacha olti marta O'zbekistonga tashrif buyurgan, respublika rahbariyati, aviatorlar, paxtakorlar bilan uchrashgan va ko'plab uchrashuvlarda nutq so'zlagan. Jizzax viloyatidagi shaharga uning sharafiga Gagarin nomi berilgan va u yerda qahramon-kosmonavtning Markaziy Osiyodagi eng ulug'vor haykali o'rnatilgan. O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan 2020-yilda bu shaharda “Kosmonavtlar va qo'riq yerlarni o'zlashtiruvchilar” muzeyi qurilishi boshlab yuborildi.

Keyinchalik kosmik tadqiqotlar jadal sur'atlar bilan rivojlanib bordi va endi kosmonavtika – fan va amaliy faoliyat sohalarining o'ziga xos sintezidir. Kosmik tadqiqotlar koinot, Yer, sayyoralarning kelib chiqishi va moddaning tuzilishi haqidagi bilimlarimizni rivojlantirish uchun ulkan nazariy va eksperimental ma'lumotlar beradi.

Kosmik tibbiyot, biologiya, materialshunoslik, sayyoralar atmosferasi va qa'ri kimyosi, astrogeologiya va boshqa ko'plab ilmiy fanlar majmuasi yaratilgan.

Kosmik tadqiqotlar asosida bir qator so'nggi ilmiy va amaliy sohalar va texnologiyalar shakllandi, masalan, kosmik masofadan turib zondlash va sun'iy yo'ldosh navigatsiyasi, bu qishloq xo'jaligi, meteorologiya, geodeziya, geologiya, qurilishni rejalashtirish, atrof-muhit nazorati, aloqa, navigatsiya.va boshqa sohalar muammolarini tubdan yangi darajada hal qilishga imkon beradi

Dunyo axborot resurslariga shaxsiy kirish, raqamli eshittirish, aloqa, navigatsiya va kuzatuv xizmatlarini birlashtirishni ta'minlaydigan yagona axborot makonini (sun'iy yo'ldosh mobil telefoniyasi, Internet, ma'lumotlarni uzatish va boshqalar) shakllantirishda kosmik vositalar alohida rol o'ynaydi. Sun'iy yo'ldoshlar havo, dengiz va quruqlikdagi transportni jo'natish, shuningdek jamoaviy va xalqaro xavfsizlikni ta'minlash uchun ishlatiladi.

Shuni ta'kidlash kerakki, O'zbekiston kosmik texnologiyalar va pilotli kosmonavtika rivojiga katta hissa qo'shdi.

Uchuvchi-kosmonavt Vladimir Aleksandrovich Djanibekov kosmosga parvoz qilgan birinchi vatandoshimiz bo'ldi. Hammasi bo'lib, u kosmik kemaning komandiri sifatida 5 marta kosmik parvozni amalga oshirdi va munosib ravishda eng tajribali kosmonavt hisoblanadi. Parvozlarni muvaffaqiyatli bajarishi va bir vaqtning o'zida ko'rsatgan jasorati va qahramonligi uchun Vladimir Janibekov ikki marta Sovet Ittifoqi Qahramoni unvoniga sazovor bo'ldi. Kosmonavt-uchuvchi general-mayor V. Djanibekovning bronza byusti Toshkentda o'rnatilgan.

Birinchi marta mustaqil O'zbekiston bayrog'ini kosmosga Rossiya Federatsiyasi kosmonavti, o'zbek o'g'loni Salijan Sharipov olib chiqqan. U kosmik parvozni 1998-yilda "Speys Shattl" dasturi asosida Amerikaning "Indevor" kosmik kemasi mutaxassisi sifatida amalga oshirgan. Sharipov 2004-yil 14-oktyabrdan 2005-yil 25-aprelgacha Xalqaro kosmik stantsiyadagi asosiy ekspeditsiya tarkibida kosmik kemalar komandiri sifatida ikkinchi kosmik parvozini amalga oshirdi. Parvoz paytida u ikki marta ochiq kosmosga chiqdi.

Qisqa tarixiy davrda kosmonavtika hayotimizning ajralmas qismiga aylandi va sivilizatsiyaning keyingi

rivojida kosmik tadqiqotlarsiz amalga oshirilmasligi aniq. Muhimi shundaki, kosmonavtika va muvaffaqiyatli amalga oshirilayotgan kosmik loyihalar va dasturlar yoshlar orasida ilm-fanga va ilmiy tadqiqotlarga qiziqishni kuchaytirmoqda.

Ushbu holatni yaxshi bilgan holda, respublika rahbariyati muhim qaror qabul qildi: 2019-yilda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni bilan "O'zbekkosmos" kosmik tadqiqotlar agentligi hukumat organi sifatida tashkil etildi. Uning vazifalari kosmik tadqiqotlar va texnologiyalarni ishlab chiqish hamda amalga oshirish, kosmik sanoat infratuzilmasini, kosmik tadqiqotlar va texnologiyalarni rivojlantirish, ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlarini olib borish, kosmosdagi xalqaro hamkorlikni amalga oshirish va bir qator boshqalar.